

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**TRANSPORT VOSITALARINI MAJBURIY TEXNIK KO'RICKDAN O'TKAZISH  
TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

*Oldingi tahrirga qarang.*

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonunini** ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

*(muqaddima O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-soni  
qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-ton)*

1. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi **Nizom** ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2003-yil 1-fevraldan boshlab amalga kiritilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi bilan birgalikda:

transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazishda muvofiqligi tekshiriladigan standartlar ro‘yxatini bir oy muddatda belgilangan tartibda tasdiqlasin;

majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazishda ular asosida transport vositalarining texnik holati tekshiriladigan ishlab chiqarish-texnika bazasiga qo‘yiladigan talablarni hamda transport vositalarini texnik diagnostika vositalaridan foydalangan holda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlari texnologiyasiga qo‘yiladigan talablarni ikki oy muddatda tasdiqlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

3. Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligining ichki va soqchilik qo‘sishlari, Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositalari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

*(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-maydagi 396-soni  
tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2018-y., 09/18/396/1287-ton)*

4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ommaviy axborot vositalarida transport vositalarining barcha egalariga, avtomobilarga texnika xizmati ko‘rsatuvchi tashkilotlarga majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini yetkazishga qaratilgan keng tushuntirish ishlari o‘tkazilishini tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari K.N. To‘laganov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O'. SULTONOV**

Toshkent sh.,  
2003-yil 31-yanvar,  
54-ton

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil  
31-yanvardagi 54-ton qaroriga  
ILOVA

**Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

**I. Asosiy qoidalar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

1. Mazkur Nizom “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq avtomototransport vositalari va ularga tirkamalarni, shuningdek shahar elektr transportini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini belgilaydi.

*(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-soni  
qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-ton)*

### *Oldingi tahrirga qarang.*

2. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi (keyingi o‘rinlarda matnda “texnik ko‘rik” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlari (keyingi o‘rinlarda matnda “DYHXX” deb yuritiladi) tomonidan mazkur Nizomga muvofiq o‘tkaziladi.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar, vazirliklar va idoralarning, boshqa tashkilotlarning, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari (keyingi o‘rinlarda TXS deb ataladi) shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari, normalariga muvofiqligi tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda Subyektlar deb ataladi) tomonidan ham baholanishi mumkin.

Bunda jismoniy shaxslar — M1 toifadagi transport vositalari egalari o‘z transport vositasining texnik holati va uskunalarini muvofiqligini baholash uchun o‘z tanloviga ko‘ra, DYHXX organlari, TXS yoki Subyektlarga murojaat qilishlari mumkin.

(2-band *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-soni qaroriga asosan ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-ton)

3. Quyidagilar texnik ko‘riddan o‘tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalari rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish;

### *Oldingi tahrirga qarang.*

transport vositalarining texnik holati va uskunalarini yo‘l harakati xavfsizligi texnik reglamentlari yoki standartlari, qoidalari, normalariga muvofiqligini baholash;

(3-bandning uchinchi xatboshisi *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-martdaggi 45-tonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 10-ton, 105-modda*)

transport vositalari sonini, ularning holatini, amalda mavjudligini, tegishlilagini va boshqa ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlarni aniqlashtirish;

yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash yuzasidan profilaktika ishlarini tashkil etish;

yo‘l harakati va transport vositalaridan foydalanish sohasida huquqni buzishlar va jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va barham berish.

### *Oldingi tahrirga qarang.*

4. Yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan va belgilangan tartibda DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan transport vositalari, shuningdek trolleybuslar va tramvaylar (keyingi o‘rinlarda matnda “transport vositalari” deb yuritiladi) majburiy texnik ko‘riddan o‘tkazilishi kerak.

(4-bandning birinchi xatboshisi *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldaggi 49-tonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-ton, 115-modda*)

### *Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiyadan o‘tgan xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalariga, xalqaro (davlatlararo, hukumatlararo) tashkilotlar va ularning vakolatxonalariga, shuningdek ushbu vakolatxonalar va tashkilotlarning xodimlariga va ularning oila a‘zolariga qarashli bo‘lgan avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar ushbu Nizomga muvofiq umumiy asoslarda texnik ko‘riddan o‘tkaziladi.

(4-bandning ikkinchi xatboshisi *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldaggi 49-tonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-ton, 115-modda*)

5. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘riddan o‘tkazilishi kerak:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchingin o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk

avtomobilari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganligiga besh yildan ko‘p bo‘lmagan (ishlab chiqarilgan yili ham shu jumлага kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “*a*” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilgan yilini hisobga oлган holda ishlab chiqarilganligiga besh yildan ortiq bo‘lgan transport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqtin aniqlanmagan transport vositalari (mazkur bandning “*a*” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

(5-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida;

e) ular ishlab chiqarilgan yildan qat’i nazar, DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan (qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan) kundan boshlab bir yil o‘tgach (mazkur bandning “*a*” kichik bandida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno).

(5-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qaroriga asosan “*d*” va “*e*” kichik bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

6. Mazkur Nizomning 5-bandi “*a*” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1-mart — 30-iyunda;

ikkinchi marta — 1-sentabr — 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-mart — 30-iyunda o‘tkaziladi.

Jismoniy shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar — 31-avgustda o‘tkaziladi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Transport vositasi texnik ko‘rikka belgilangan muddatlardan oldin taqdim etilishi mumkin. Ushbu holda transport vositasini texnik ko‘rikka taqdim etish muddatini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror transport vositasi egasi — yuridik yoki jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida DYHXXning tegishli hududiy bo‘linmasi rahbari tomonidan qabul qilinadi.

(6-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldaggi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

7. Transport vositalari DYHXX organlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan miqdorlarda yig‘im undiriladi.

Birinchi (oldingi) texnik ko‘rikda nosoz deb topilgan transport vositalari takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun belgilangan miqdorlarda yig‘im undiriladi.

Texnik ko‘rik o‘tkazilganligi uchun yig‘im summasi tegishli mahalliy budjetga o‘tkaziladi.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

## **II. Jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarining texnik holatini tekshirishni tashkil etish va o‘tkazish tartibi**

8. Jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarining texnik holatini tekshirish:  
DYHXXning diagnostika stansiyalari;  
TXS;

Subyektlar (yo‘lovchilar tashish uchun mo‘ljallangan va haydovchi o‘rnidan tashqari o‘tirish uchun sakkiztadan ko‘p bo‘lmasan o‘rindiqlarga ega M1 toifadagi transport vositalari) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bunda TXS va Subyektlar ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun qat’iy belgilangan narxlarni belgilashlari va DYHXX organlari bilan hamkorlik qilishlari zarur.

9. Jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun DYHXXning diagnostika stansiyalari, TXS va Subyektlar O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o‘tkazilgan, transport vositalarining texnik holatini tekshirishni tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur texnologik jihozlar bilan ta’minlangan ishlab chiqarish-texnik bazasiga ega bo‘lishi zarur.

10. Jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun Subyektlarning ishlab chiqarish-texnik bazasi:

a) quyidagilarga muvofiq bo‘lishi zarur:

M1 toifadagi transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarga;

avtotransport vositalariga o‘rnatilgan gaz ballon uskunalarini ulanmalarining germetikligi va ishonchligini sinovdan o‘tkazish va ularning ballonlarini tekshirish uchun — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan siqilgan i tabiiy gazda (keyingi o‘rinlarda STG deb ataladi), suyultirilgan neft gazida (keyingi o‘rinlarda SNG deb ataladi) yoki dizel va gazsimon yoqilg‘i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarga;

b) zarur texnik diagnostika vositalariga ega bo‘lishi lozim, shu jumladan:

o‘qiga tushadigan maksimal og‘irlik 3500 kg gacha bo‘lgan transport vositalarining tormoz tizimini tekshirish uchun tormoz tizimining texnik diagnostika vositalariga;

pnevmatik va pnevmogidravlik tormoz uzatmalarida siqilgan havo bosimi va germetiklikni (bosim tushishini) nazorat qilish vositalariga;

tirkamalarni ularash moslamasining bosib turish qurilmasiga;

rul boshqaruvdagi umumiylu yuvtini o‘lchash priboriga;

rul boshqaruvi va podveskasi detallaridagi yuvtlarni tekshirish testeriga;

chiroqlar yorug‘ligini boshqarishni va kuchini nazorat qilish priboriga;

shinalarni texnik diagnostika qilish vositalariga;

gazanalizatori — uchqundan o‘t oldirish dvigatellariga ega transport vositalarining ishlab bo‘lingan gazlarida ifloslantiruvchi moddalarning mavjudligini aniqlash pribori;

tutun o‘lchash pribori — siqilishdan o‘t oldirish dvigatellariga ega transport vositalarining ishlab bo‘lingan gazlarida tutunni aniqlash pribori;

dvigatel aylanish chastotasi va moy haroratini o‘lchash priboriga;

shovqin o‘lchash priboriga;

oynalarning yorug‘lik o‘tkazishini tekshirish priboriga;

kompressorga;

qinchali manometrga;

zarur kompyuter texnikasiga.

Ayrim texnik diagnostika vositalari xavfsiz foydalanish bo‘yicha talablarga muvofiq bo‘lish sharti asosida universal texnik vositalar bilan almashtirilishi mumkin.

Qo‘llaniladigan barcha o‘lchov vositalari tasdiqlangan tipda bo‘lishi, qonun hujjalariغا muvofiq tekshiruvdan o‘tgan bo‘lishi zarur.

DYHXXning diagnostika stansiyalari va TXSning ishlab chiqarish-texnik bazasi tekshirilayotgan transport vositasining toifasiga ko‘ra (M1, M2, M3, №1, №2, №3) mazkur band talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

11. Ishlab chiqarish-texnik bazaning maydoni, texnik diagnostika vositalarining soni va xususiyatlari, mehnat va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid talablar qonun hujjalariiga muvofiq belgilanadi.

12. Transport vositalarini tekshirishga tegishli mutaxassislikka ega bo‘lgan yoki diagnostika qilish texnologiyasi, diagnostika jihozlarining tuzilishi va ishlash prinsiplari, diagnostika vositalarini qo‘llagan holda texnik holatni tekshirish metodlari, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha talablarni o‘rgangan shaxslar qo‘yilishi mumkin.

13. Subyektlar jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik holatini tekshirishni o‘tkazish bo‘yicha faoliyatlarini boshlashdan oldin Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalarini (keyingi o‘rinlarda YHXB deb ataladi) yaratilgan sharoitlar mazkur Nizom talablariga muvofiqligi va ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirishga tayyor ekanligi haqida yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

Subyektning xatiga quyidagi hujjalilar ilova qilinadi:

Subyekt ustavining nusxasi;

avtotransport vositalarining texnik holatini tekshirishni tashkil etish va o‘tkazish uchun tegishli texnologik jihozlar bilan ta’milangan ishlab chiqarish-texnik baza O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan berilgan akkreditatsiyadan o‘tkazilganligi haqidagi xulosa;

“Sanoatgeokontexnazorat” davlat inspeksiyasining avtotransport vositalariga o‘rnataladigan ballonlarni texnik tekshirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsatnomasining nusxasi.

13<sup>1</sup>. Hududiy YHXB Subyektning mazkur Nizomning **13-bandiga** muvofiq taqdim etilgan xati qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida uni o‘rganadi, Subyekt tomonidan taqdim etilgan hujjalalar to‘liqligini tekshiradi va ular mazkur Nizom talablariga muvofiq bo‘lgan taqdirda, Subyektni jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun zarur sharoitlarga ega tadbirdorlik subyektlari — yuridik shaxslar hisobini yuritish reyestriga kiritadi hamda bu haqida ikki ish kuni ichida Subyektni xabardor qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi Subyekt xabardor qilingan paytdan boshlab 2 ish kuni ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladigan reyestrga kiritadi.

Reyestr aholini jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun zarur sharoitlarga ega Subyektlar haqida xabardor qilish uchun yuritiladi.

13<sup>2</sup>. Subyekt tomonidan mazkur Nizomning **13-bandida** ko‘rsatilgan hujjalalar to‘liq taqdim etilmagan yoki taqdim etilgan hujjalarda noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda hududiy YHXB 2 ish kuni ichida Subyektga yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatgan holda xabar beradi.

Subyekt mazkur Nizomning **13-bandiga** muvofiq hududiy YHXBga takroran xabarnoma yuborish yoki DYHXX mansabdor shaxslarining harakati (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

13<sup>3</sup>. Subyekt o‘zi yoki uning filiali ro‘yxatga olingan hududiy YHXB xizmat ko‘rsatadigan hududda ro‘yxatdan o‘tkazilgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik holatini tekshiradi.

Hududiy YHXB xizmat ko‘rsatadigan hududda ikki yoki undan ortiq Subyektlar mavjud bo‘lgan hollarda, Subyekt transport vositalari egalarining xohishiga ko‘ra tanlanadi.

13<sup>4</sup>. Jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi ro‘yxatdan o‘tgan transport vositalarining soni Subyektlar tomonidan tekshiriladigan transport vositalarining sonidan ko‘p bo‘lsa va buning natijasida transport vositasining texnik holati o‘z vaqtida tekshirilishini ta’milash imkonii bo‘lmaydigan hududlarda boshqa transport vositalarining texnik holatini tekshirish joylari DYHXX organi tomonidan mazkur Nizomning **28, 29** va **33-bandlariga** muvofiq belgilanadi.

13<sup>5</sup>. M1 toifadagi transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun texnik ko‘rikdan oldin uning egasi — jismoniy shaxs yoki u tomonidan vakil qilingan shaxs (keyingi o‘rinlarda arizachi ataladi) reyestrga kiritilgan Subyekt xodimiga (operatoriga) murojaat qiladi, transport vositasini va quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun taqdim etilgan transport vositaning turi uchun nazarda tutilgan, tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasi;

transport vositasining ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma (texnik pasport, texnik talon);

gaz yoqilg‘isida ishlashga qayta jihozlangan transport vositasiga o‘rnatilgan gaz ballonining sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikati nusxasi.

Transport vositasi taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiq bo‘lgan taqdirda va u identifikatsiya qilingandan keyin mazkur transport vositasining texnik holatini tekshirishga ruxsat etiladi.

13<sup>6</sup>. Subyektning transport vositasi texnik holatini tekshirish xizmatlari uchun mazkur xizmatni ko‘rsatadigan Subyekt tomonidan tasdiqlangan, biroq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya bosh boshqarmalari bilan kelishgan holda belgilanadigan cheklangan miqdorlardan oshmaydigan tariflar bo‘yicha haq to‘lanadi.

13<sup>7</sup>. Transport vositasining texnik holati Subyekt xodimi (operatori) tomonidan mazkur Nizomning **VI bo‘limida** nazarda tutilgan tartibda tekshiriladi.

Avtotransport vositalariga o‘rnatilgan STG va SNG tizimlarining germetikligi hamda agregatlari va uzellari (opressovka) ulangan joylarning ishonchliligi Subyekt tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg‘i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentga muvofiq sinovdan o‘tkaziladi.

13<sup>8</sup>. Tekshiruvdan o‘tgan va texnik soz deb topilgan har bir transport vositasiga Subyekt va TXS tomonidan mazkur Nizomga **2-ilovaga** muvofiq shaklda uning texnik holati haqida ma’lumotnomasi rasmiylashtiriladi va beriladi.

13<sup>9</sup>. Transport vositasi texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun taqdim etgan avtotransport egasi tomonidan qonun hujjatlari buzilgan (ko‘rsatilgan hujjatlarni, agregatlarning identifikatsiya raqamlarini soxtalashtirish va boshq.) holatlar aniqlangan taqdirda, Subyekt vakili bu haqida darhol DYHXX organlariga xabar berishi shart.

13<sup>10</sup>. Transport vositasining texnik holatini tekshirishda huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ygan Subyektlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralar qo‘llaniladi.

13<sup>11</sup>. Subyekt qayta tashkil etilganda, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o‘zgargan hollarda Subyekt yoki uning huquqiy vorisi (merosxo‘ri) qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng yetti ish kuni ichida hududiy YHXBni ko‘rsatilgan ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda xabardor qilishi shart.

14. Subyekt yoki TXS tomonidan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositasining texnik holati haqida berilgan ma’lumotnomasi berilgan kundan boshlab o‘n kun ichida haqiqiy hisoblanadi va DYHXX organlarida transport vositalari texnik holatini tekshirmsandan, ularning texnik ko‘rikdan o‘tkazish natijalarini rasmiylashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

*(II bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-soni qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)*

### **III. Yuridik shaxslarning transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish**

15. Texnik ko‘rik transport vositalari ro‘yxatdan o‘tkazilgan (vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazilgan) joyda:

zarur shart-sharoitlarga (texnik diagnostika uskunalariga, ko‘tarish moslamalariga yoki qarab chiqish uchun chuqurchalarga, nazorat-o‘lchash asboblariga, asfalt yoki beton qoplangan bir tekis gorizontal maydonchaga) va malakali mutaxassislarga ega bo‘lgan tashkilotlarda;

texnika xizmati ko'rsatish stansiyalarida;

*Oldingi tahrirga qarang.*

DYHXXning diagnostika stansiyalarida;

(15-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

DYHXX organlari tomonidan o'rnatilgan texnik nazorat postlarida o'tkaziladi.

(15-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

Yuridik shaxslarning transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish joylari DYHXXning hududiy bo'linmalari tomonidan belgilanadi.

(15-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

Tashkilotlarda texnik ko'rik boshlangunga qadar barcha diagnostika apparatlari tekshirilishi va ish holatiga keltirilishi zarur.

16. Texnik ko'rikni tashkil etish jadval tuzish bilan rejalshtiriladi, jadvalda texnik ko'rik o'tkazish joyi, sanasi va vaqt, ko'rikka qo'yilayotgan transport vositalari soni to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jadval yuridik shaxslarning buyurtmanomalari va diagnostika stansiyalarining texnik imkoniyatlari, ob-havo-iqlim, ishlab chiqarish sharoitlari va boshqa sharoitlar hisobga olingan holda DYHXX hududiy organlari tomonidan tuziladi.

(16-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

17. Bir kunda texnik ko'rikka qo'yiladigan transport vositalari soni mavjud diagnostika va nazorat-o'lchash uskunalarining kunlik unumtdorligidan kelib chiqib belgilanadi.

18. Texnik ko'rikni o'tkazish jadvali va uni o'tkazish bo'yicha komissiyaning tarkibi har yili 15-fevralgacha Toshkent shahar hokimi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning tegishli tumani (shahari) hokimlarining qarori bilan tasdiqlanadi. Bunda komissiya tarkibiga O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi hududiy bo'linmasi, tramvay-trolleybus parklari, boshqa davlat organlari, shuningdek nodavlat, notijorat tashkilotlarning vakillari kiritiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

DYHXX hududiy organining (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlarining yo'l harakati xavfsizligi bo'limi (bo'linmasi, guruhi) vakili (keyingi o'rnlarda matnda — DYHXX xodimi) komissiya raisi hisoblanadi.

(18-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

19. Yuridik shaxsga texnik ko'rik o'tkaziladigan muddatlar to'g'risidagi bildirishnomalar yuboriladi, unga transport vositalari guruhlari (**3-ilova**) yoki alohida transport vositalari (**4-ilova**) texnik ko'rik dalolatnomasi blanklari ilova qilinadi. Texnik ko'rik dalolatnomalari blanklari talab etiladigan ma'lumotlar ko'rsatilgan holda (texnik holat to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari) transport vositalari ro'yxatiga muvofiq to'ldiriladi. Transport vositalari guruhining texnik ko'rigi dalolatnomasida ko'rsatilgan transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar DYHXXning tegishli organlarida hisobga olish ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

20. Texnik ko‘rik tashkilotlarda, diagnostika stansiyalarida va texnika xizmati ko‘rsatish stansiyalarida ish vaqtida, texnik nazorat postlarida ish kunlarining kunduzgi va tungi vaqtlarida yoki haftaning dam olish kunlaridan birida o‘tkaziladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

21. Boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarga ijaraga berilgan transport vositalari ijaraga beruvchida yoxud ular vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi DYHXX organlarida ijaraga beruvchi uchun belgilangan muddatlarda texnik ko‘rikdan o‘tadi.

(21-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldaggi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

22. Texnik ko‘rik boshlanishidan kamida o‘n kun oldin yuridik shaxs DYHXXning hududiy organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

(22-bandning bиринчи xатбоси O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldaggi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

yuridik shaxsning rahbari, bosh buxgalter (bosh buxgalter funksiyasini bajaruvchi shaxs) tomonidan imzolangan, yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan texnik ko‘rik dalolatnomasining bir nusxasi;

texnik ko‘rikdan o‘tkazganlik uchun yig‘imning belgilangan summasi to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat (to‘lov topshirig‘i, kvitansiya);

mukammal ta‘mirlashda, xizmat safarida bo‘lgan, ijaraga berilgan yoki sotishga qo‘yilgan transport vositalari sonini tasdiqlovchi ma’lumotlar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

gaz yonilg‘isida ishslash uchun qayta jihozlangan transport vositalariga o‘rnatalgan gaz ballonlarining amaldagi davlat standartlariga mosligi haqidagi sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikati nusxasi;

“Sanoatgeokontexnazorat” davlat inspeksiyaning gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish huquqini beruvchi ruxsatnomasi mavjud bo‘lgan tashkilot tomonidan gaz yonilg‘isida ishslash uchun qayta jihozlangan transport vositalarining gaz ballonlari sinovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar nusxasi.

(22-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldaggi 49-sonli qaroriga asosan beshinchi va oltinchi xатбoshilar bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

haydovchilar malaka oshirgani to‘g‘risida sertifikatining (sertifikatlari) nusxasi.

(22-bandning yetinchi xатбоси O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldaggi 139-sonli qarori tahririda — Qонун hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2018-y., 09/18/139/0818-son)

#### **IV. Trolleybuslar va tramvaylarni texnik ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish**

23. Trolleybuslar va tramvaylar texnik holatining Tramvay va trolleybusdan texnik foydalanish qoidalari, normativlar va standartlarning yo‘l harakati xavfsizligi va texnika xavfsizligini ta‘minlashga tegishli qismi talablariga muvofiqligi trolleybuslar va tramvaylarni davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

24. Yo‘l harakati xavfsizligi talablaridan hech bo‘lmaganda bittasiga javob bermaydigan trolleybus va tramvaylar nosoz deb hisoblanadi.

25. Texnik ko‘rikka qo‘yilgan, biroq texnik nosozlik tufayli ko‘rikdan o‘tmagan tramvaylar va trolleybuslar foydalanish uchun qo‘yilmaydi.

26. O‘tkazilgan texnik ko‘rik natijalari bo‘yicha mazkur Nizomda belgilangan tartibda hujjatlar tuziladi va rasmiylashtiriladi.

#### **V. Jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

27. Jismoniy shaxslarga tegishli transport vositasini navbatdagi texnik ko‘rikka qo‘yish sanasi joriy ko‘zdan kechirish paytida DYHXX organlari xodimlari tomonidan belgilanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Texnik ko‘rikni bir tekis o‘tkazish maqsadida DYHXX organlari jadvallar tuzishi va 1-yanvardan 31-avgustgacha bo‘lgan davrda transport vositalari egalari tomonidan transport vositalarini navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun taqdim etishning aniq sanalari (oylari)ni belgilashi mumkin.

(27-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

Transport vositalari egalari transport vositalarini navbatdagi texnik ko‘rikka DYHXX organlari tomonidan belgilangan muddatdan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

(27-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qaroriga asosan uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

28. Texnik ko‘rik transport vositalari ro‘yxatdan o‘tkazadigan (vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazadigan) joydagi:

TXSda;

DYHXX diagnostika stansiyalarida (jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik holati mazkur Nizomning 13<sup>4</sup>-bandi talablariga riosa etilgan holda baholanishi lozim);

DYHXX organlari tomonidan belgilangan texnik nazorat postlarida;

transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lgan jamoaviy garaj hududida, avtomobillar to‘xtash joylarida;

Subyektlar tomonidan (jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari) o‘tkaziladi.

(28-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

29. Transport vositalarining texnik ko‘rigi o‘tkaziladigan joy DYHXX organlari tomonidan belgilanadi. Transport vositalarining texnik ko‘rigi ish kunlarining kunduzgi va tungi vaqtlarida yoki haftaning dam olish kunlarining birida o‘tkaziladi.

(29-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagagi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

30. Texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun transport vositasi egasi yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan quyidagi hujjatlар ko‘rsatiladi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat (harbiy xizmatchilar — shaxsiy guvohnoma va turar joyidan ma’lumotnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligida yoki Adliya vazirligida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan xalqaro va xorijiy tashkilotlar xodimlari — tegishli ravishda Tashqi ishlari vazirligi yoki Adliya vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilinganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan akkreditatsiya kartochkalari va milliy pasportlari; boshqa xorijiy fuqarolar – ichki ishlari organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan milliy pasportlari yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash ruxsatnomasi; fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar — O‘zbekiston Respublikasida yashash ruxsatnomasi);

(30-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-apreldagi 203-sonli qarori tahririda — O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 17-son, 199-modda)

texnik ko‘rikdan o‘tkazishga berilgan transport vositasiga muvofiq toifadagi transport vositasini boshqarish huquqiga haydovchi guvohnomasi;

transport vositasining ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risida guvohnoma (texnik pasport, texnik talon);

*Oldingi tahrirga qarang.*

(30-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-dekabrdagi 1001-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017-y., 10/17/1001/0447-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

“Sanoatgeokontexnazorat” davlat inspeksiyasining gaz balloonlarini sinovdan o'tkazish huquqini beruvchi ruxsatnomasi mavjud bo'lgan tashkilot tomonidan gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarining gaz balloonlari sinovdan o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnoma;

sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalariga o'rnatilgan gaz balloonlarining muvofiqlik sertifikati nusxasi;

(30-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qaroriga asosan oltinchi va yettinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda) quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

texnik ko'rikdan o'tish uchun belgilangan yig'im summasi to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (to'lov topshirinomasi, kvitansiya);

*Oldingi tahrirga qarang.*

TXS va Subyektning transport vositasining texnik holati to'g'risidagi ma'lumotnomasi — shunday ma'lumotnomasi bo'lganda.

(30-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

31. Transport vositasini texnik ko'rikdan o'tkazish joyiga olib borish mumkin bo'lмаган taqdirda uning egasi belgilangan muddatlarda DYHXXning hududiy organiga yozma ariza va ushbu Nizomning **30-bandida** ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etadi (haydovchi guvohnomasi, texnik ko'rikdan o'tkazish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat va tibbiy ma'lumotnomasi bundan mustasno). Bunda DYHXXning hududiy organi xodimi texnik ko'rikdan o'tkazilganligi to'g'risidagi talonga nosozlik to'g'risida “NOSOZ” yozuvini qayd qiladi va shaxsiy imzo va muhr (shtamp) bilan tasdiqlaydi.

(31-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

Nosozlik bartaraf etilgandan keyin transport vositasi egasi uni, ushbu Nizomning **30-bandida** ko'rsatilgan hujjatlarni ko'rsatgan holda texnik ko'rikka qo'yadi.

32. Egasining yo'qligi yoki kasalligi oqibatida texnik ko'rikdan belgilangan muddatlarda o'tkazilmagan transport vositalari egasi qaytib kelgandan yoki sog'aygandan keyin 10 kun mobaynida texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

## **VI. Texnik ko'rikni o'tkazish tartibi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

33. Transport vositalari texnik ko'rikdan o'tkazishga DYHXX organlari tomonidan ko'rsatilgan joyga qo'yilishi lozim (Subyektlar tomonidan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositarining texnik holatini baholash hollari bundan mustasno).

(33-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

34. Har qaysi transport vositasining texnik ko'rigi ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko'rsatilgan ma'lumotlarga transport vositasi turi,

markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligini tekshirishdan boshlanadi.

(34-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

35. Har qaysi transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi jihatidan tekshiriladi.

(35-bandning bиринчи xатбосиши O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-martdagi 45-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 10-son, 105-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

Gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘zdan kechirishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligi ham tekshiriladi.

(35-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

36. Tirkamalar va yarim tirkamalarning texnik holati ham avtopoyezd tarkibida, ham alohida turgan holatida tekshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

37. Texnik ko‘rikdan o‘tgan transport vositalariga tegishli dalolatnoma tuziladi (3, 4 yoki 4a-ilovalar).

(37-bandning bиринчи xатбосиши O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

Texnik ko‘rikdan o‘tgan transport vositasini texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi talonga DYHXX organining xodimi belgilangan namunada shtamp qo‘yadi, sozligi to‘g‘risida “SOZ” so‘zini qayd etadi, imzo bilan tasdiqlaydi va texnik ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risida talon beradi (5-ilova).

Texnik ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risidagi talonni (yoki dublikatni) bergenlik uchun yig‘im undirilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

(37-bandning to‘rtinchi xатбосиши O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qонун hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

Texnik ko‘rikdan o‘tgani to‘g‘risidagi talon navbatdagi texnik ko‘rik o‘tkazilgungacha saqlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

38. Texnik ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risidagi talon yo‘qolganda (yoki yaroqsizlanganda) yuridik yoki jismoniy shaxs — transport vositasi egasining yozma arizasiga ko‘ra DYHXXning ro‘yxatdan (vaqtinchalik ro‘yxatdan) o‘tkazilgan joydagi organi ko‘rikdan o‘tkazilganlik faktini tekshiradi.

(38-bandning bиринчи xатбосиши O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

Ko‘rikdan o‘tganligi fakti tasdiqlanganda va ushbu Nizomning 30-bandida nazarda tutilgan hujjatlar ko‘rsatilganda talon dublikati rasmiylashtiriladi va beriladi. Bunda transport vositasining texnik holati tekshirilmaydi va uni navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishga qo‘yish muddati o‘zgarmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

39. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ruxsatnomasini olish talab qilinadigan radioelektron vositalar va yuqori

chastotali qurilmalarga ega bo‘lgan transport vositalarida tegishli ruxsatnomaning mavjudligi tekshiriladi.

(39-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 27-iyundagi 171-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 26-son, 338-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

40. Maxsus va tezkor xizmatlar transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek transport vositasining rang—grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

(40-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-martdagи 45-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2014-y., 10-son, 105-modda)

41. Konservatsiyaga qo‘yilgan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda ularning butligi tekshiriladi. Transport vositasining soz holatdaligiga shubha tug‘diradigan sabablar mavjud bo‘lganda transport vositasini g‘ildiraklarini chiqarish uchun tagliklardan qo‘zg‘atmagan holda uning dvigatevi va transmissiyasining ishlay olishi tekshiriladi.

42. Texnik ko‘rik natijalari transport vositasining ro‘yxatdan o‘tkazish kartochkasida, shuningdek Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi hududiy organlarining hisobga olish hujjatlarida qayd etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

43. Jismoniy shaxs tomonidan transport vositasini (nosozligi yoki boshqa uzrli sabablar tufayli) texnik ko‘rikdan o‘tkazishga qo‘yish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, hisobdan chiqarish uchun yoki (bitta transport vositasini ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomasini albatta taqdim etish talab qilinadigan) boshqa holatlarda transport vositasi egasining yozma arizasiga ko‘ra DYHXXning hududiy organi xodimi tomonidan u joylashgan joyda, bitta transportni ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomasi tuzilgan holda texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin. Dalolatnomada berilgan vaqtidan boshlab 30 kun mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

(43-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

44. Texnik holati va jihozlari yo‘l harakati xavfsizligi talablaridan hatto bittasiga javob bermaydigan transport vositasi ham nosoz hisoblanadi va undan foydalanish taqiqlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Texnik ko‘rikdan o‘tkazishda DYHXX organlari tomonidan texnik jihatdan nosoz deb topilgan transport vositasining, shuningdek texnik holati belgilangan talablarga javob bermaydigan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositasining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari kamchiliklar va nosozliklar bartaraf etilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartibda echib olinadi;

(44-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshisi bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

Bunday transport vositasini takroriy ko‘rikdan o‘tkazish oldingi ko‘rikdan o‘tkazilgan vaqtidan boshlab yigirma kundan kechikmay, ushbu Nizomda belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Bu holda texnik holatni tekshirish faqat oldingi ko‘rikdan o‘tkazishda yo‘l harakati xavfsizligi talablariga muvofiq bo‘lmagan ko‘rsatkichlar bo‘yichagina o‘tkaziladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Transport vositasi oldingi ko‘rikdan o‘tkazish vaqtidan boshlab 20 kundan ortiq bo‘lgan muddatda takroriy ko‘rikdan o‘tkazishga qo‘yilgan taqdirda texnik holatni tekshirish to‘liq hajmda o‘tkaziladi.

(44-bandning to‘rtinchchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

## VII. Yakuniy qoidalar

*Oldingi tahrirga qarang.*

45. Texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi shtamp namunasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Shtamplarni tayyorlash, shuningdek ular

bilan DYHXXning hududiy organlarini ta'minlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

(45-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

46. Texnik ko'rikdan o'tkazilganligi to'g'risidagi talon qat'iy hisobda turadigan blanka hisoblanadi, uni tayyorlash, saqlash, sarflash va hisobga olish belgilangan tartibda DYHXX organlari tomonidan amalga oshiriladi.

(46-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

Talon blankalarini tayyorlash xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash markazlashtirilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi tomonidan respublika budjeti mablag'larini hisobiga amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2012-y., 44-son, 507-modda)

Transport vositalarini majburiy  
texnik ko'rikdan o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Jismoniy shaxsga tegishli transport  
vositasining texnik holati to'g'risida  
MA'LUMOTNOMA**

**TXS/Subyekttomonidan**

(TXS/Subyekt nomi)

ga tegishli

(egasining F.I.O.)

rusumidagi,

(transport vositasining rusumi)

**davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami** \_\_\_\_\_ **bo'lgan  
manzili**

transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilgan manzil

**bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan transport vositasining texnik holati tekshirildi va  
transport vositasining texnik jihatdan sozligi hamda texnik reglamentlar, standartlar  
talablariga, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga javob berishi aniqlandi.**

Rahbar \_\_\_\_\_  
(mas'ul shaxsning imzosi, F.I.O.)

20 \_\_\_\_ y “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

**M.O'.**

Izoh: ushbu ma'lumotnomma berilgan kundan boshlab o'n kun mobaynida haqiqiydir va transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish natijalarini DYHXX organlarida ularning texnik holatini tekshirmsandan rasmiylashtirish uchun asos bo'ladi.

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
3-ILOVA**

**Transport vositalari guruhini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish  
DALOLATNOMASI**

Tuzilgan sanasi: 20 \_\_\_ yil “ \_\_\_ ”  
 20 \_\_\_ yil “ \_\_\_ ” dan 20 \_\_\_ yil “ \_\_\_ ” gacha \_\_\_\_\_  
(yuridik shaxsning nomi)

gaqarashlitransportvositalariguruhitexnikko‘rikdano‘tkazildi

T/r	Transport vositasining turi	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami	Markasi	Ishlab chiqarilgan yili	Agregatlar raqami			Texnik holati, nosoz transport vositasining ro‘yxatdan o‘tkazish guvohnomasi olib qo‘yliganligi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilarini echib olinganligi to‘g‘risidagi belgi	Izoh. Benzin, dizel yonilg‘isi, sifilgan tabiiy gazda yoki suyultirilgan neft gazida ishlaydi
					dvigate	kuzov	shassi (rama)		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.									
2.									
.....									

Yuridik shaxs hisobidagi (balansidagi)  
transport vositalari sonini  
tasdiqlaymiz:

Ro‘yxatda ko‘rsatilgan transport  
vositalari YHX REO (MREO, REP)  
hisobga olish ma’lumotlari bilan  
taqqoslangan

Korxona rahbari \_\_\_\_\_ REO (MREO, REP) xodimi \_\_\_\_\_

(imzo, F.I.O)

(lavozimi, DYHXX organi nomi, unvoni, F.I.O)

Bosh buxgalter (buxgalter yoki hisobni yurituvchi  
shaxs) \_\_\_\_\_

m.o‘.

(imzo, FIO)

m.o‘.

Tashkilot hisobida hammasi bo‘lib \_\_\_ avtomobil, \_\_\_ tirkama, yarim tirkama va \_\_\_ mototransport vositalari mavjud, ulardan \_\_\_ avtomobil, \_\_\_ tirkama, \_\_\_ yarim tirkama va \_\_\_ mototransport vositalari texnik ko‘rikka qo‘yligan.

\_\_\_ avtomobil, \_\_\_ mototransport vositasi, \_\_\_ tirkama, yarim tirkama mukammal ta’mirlashdaligi va \_\_\_ avtomobil, \_\_\_ mototransport vositasi, \_\_\_ tirkama va yarim tirkama xizmat safaridaligi tufayli \_\_\_ avtomobil, \_\_\_ mototransport vositalari, \_\_\_ tirkama, yarim tirkama texnik ko‘rikdan o‘tmadi.

Tekshirilgan avtombillardan \_\_\_ avtomobil, \_\_\_ mototransport vositalari, \_\_\_ tirkama, yarim tirkama texnik jihatdan nosoz deb topildi.

Shu jumladan:

\_\_\_ ta transport vositasining tormoz sistemasida;

\_\_\_ ta transport vositasining rul boshqaruvida;

\_\_\_ ta transport vositasining tashqi yoritish priborlarida nosozlik mavjudligi;

\_\_\_ ta transport vositasida foydalanish uchun yaroqsiz avtoshinalar mavjudligi;

— ta transport vositasining ishlangan gazida zararli moddalar mavjudligi va ularning tutunliligi belgilangan normalardan ortiqchaligi aniqlandi.

Hisobdag'i avtomobillardan — tasi benzin yonilg'isi bilan, — tasi dizel yonilg'isi, — ta suyultirilgan gaz, — tasi siqilgan gaz bilan ishlaydi.

Benzinda ishlaydigan tekshirilgan — ta avtomobildan — tasi, dizel yonilg'isida ishlaydigan — tasidan — tasi, siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan — si va suyultirilgan neft gazida ishlaydigan — dan — tasi nosoz deb topildi.

---

(lavozimi, DYHXX organining nomi, unvoni, F.I.O. imzo)

---

Dalolatnomma nusxasini oldim:

Yuridik shaxs rahbari \_\_\_\_\_

(F.I.O. imzo)

*(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldag'i 49-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)*

Transport vositalarini majburiy  
texnik ko'rikdan o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizomga  
4-ILOVA

*Oldingi tahririga qarang.*

Tuzilgan sanasi 20 \_\_\_\_ yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**Texnik ko'rik** \_\_\_\_\_

(DYHXX organining nomi,

mansabdar shaxsnинг lavozimi, unvoni, F.I.O.)

**tomonidan o'tkazildi**

- 1. Transport vositasining markasi, modeli** \_\_\_\_\_
- 2. Turi** \_\_\_\_\_
- 3. Rangi** \_\_\_\_\_
- 4. Ishlab chiqarilgan yili** \_\_\_\_\_
- 5. Davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami** \_\_\_\_\_

10.

**11. Joylashgan joyi (turar joyi)** \_\_\_\_\_

**12. Quyidagi texnik nosozliklar aniqlandi:** \_\_\_\_\_

**13. Avtomashinaning holati** \_\_\_\_\_

**14. Radioto'siqlarni yo'qotish moslamalarining mavjudligi** \_\_\_\_\_

**15. Spidometrning holati** \_\_\_\_\_

16

(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagi 49-soni qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

*Oldingi tahirga qarang.*

Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga  
4a-ILOVA

**Gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan alohida transport vositasini texnik  
ko'rikdan o'tkazish  
DALOLATNOMASI**

Tuzilgan sanasi: 20\_\_yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

(DYHXX, mansabdar shaxsning lavozimi, unvoni, F.I.O.)

tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazildi.

1. Transport vositasining markasi, modeli

2. Turi \_\_\_\_\_

3. Rangi \_\_\_\_\_

4. Ishlab chiqarilgan yili

5. Davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgisi

9b. Gaz balloni ishlab chiqarilgan yil

9g. Gaz balloonidan foydalanish muddati

9e. Gaz balloonini navbatdagi sinovdan o'tkazish sanasi

10. Transport vositasining tegishliligi \_\_\_\_\_

6. Shassi (rama) raqami

7. Dvigatel raqami \_\_\_\_\_

8. Kuzovning raqami \_\_\_\_\_

9. Ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma  
(texnik pasport)ning seriyasi va  
raqami) \_\_\_\_\_

9a. Gaz yonilg'isi turi

(suyultirilgan gaz, siqilgan gaz)

9v. Gaz balloni raqami \_\_\_\_\_

9d. Gaz balloni sinovdan o'tkazilgan sana

(yuridik shaxsning to'liq nomi, yakka tartibda egalik qiluvchining F.I.O.)

11. Turgan joyi (yashash joyi) \_\_\_\_\_

12. Quyidagi texnik nosozliklar aniqlandi \_\_\_\_\_

13. Avtoshinaning holati \_\_\_\_\_

14. Radioto'siqni bartaraf etish uchun moslama mavjudligi \_\_\_\_\_

15. Spidometrning holati \_\_\_\_\_

16. Texnik holati to'g'risidagi xulosa \_\_\_\_\_

(texnik soz, texnik nosoz)

DYHXX xodimi \_\_\_\_\_

(imzo, F.I.O.)

Dalolatnama nusxasini oldim \_\_\_\_\_  
(imzo, F.I.O. sana)

(4a-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-fevraldagagi 49-soni qaroriga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2012-y., 11-son, 115-modda)

Transport vositalarini majburiy  
texnik ko'rikdan o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizomga  
5-ILOVA

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Texnik ko'rikdan o'tkazilgani to'g'risidagi talon**  
**NAMUNASI**

<b>TRANSPORT VOSITASINING TEXNIK KO'RIKDAN O'TGANI TO'G'RISIDAGI TALON</b>
<b>00 UZ № 000000</b>
Transport vositasining rusumi
Davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgisi

Талоннинг орқа томони

<b>O'tkazilgan texnik ko'rik natijasi</b> _____ (SOZ/NOSOZ)
Texnik ko'rikdan o'tkazilgan sana 20__ yil «___» ____
Navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazish sanasi 20__ yil «___» ____
<b>Alohida belgilari</b> _____ (DYHXX idorasining nomi, mansabdor shaxsning lavozimi, unvoni, F.I.O. va imzosi)
M.O. »,

(5-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-soni qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son)

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003-y., 1-2-son, 17-modda; 2004-y., 17-son, 199-modda; 30-son, 345-modda; 2012-y., 11-son, 115-modda, 44-son, 507-modda, 52-son, 587-modda; 2014-y., 10-son, 105-modda, 37-son, 473-modda; 2015-y., 26-son, 338-modda; 2017-y., 36-son, 958-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017-y., 10/17/1001/0447-son, 26.12.2017-y., 09/17/1010/0461-son, 26.02.2018-y., 09/18/139/0818-son, 01.06.2018-y., 09/18/396/1287-son)